



## Boshlang'ich sinf ona tili fani me'yoriy xujjatlarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning hozirgi holati.

**Normatova Maxfirat  
Zayniddin qizi.**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi 2-kurs magistranti. (Boshlang'ich ta'lim)*

Аннотация

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida me'yoriy hujjatlarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish masalasi tahlil qilinadi. Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari asosida o'quvchilarda fonetik, leksik, grammatik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari yoritiladi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvning amaliyotdagi ahamiyati va mavjud muammolar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ona tili, lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, metodika.

**Abstract:** This article analyzes the issue of developing linguistic competencies within the regulatory documents of the primary school mother tongue subject. Based on the State Educational Standard and curriculum, modern approaches to the development of students' phonetic, lexical, grammatical, and communicative competencies are highlighted. Furthermore, the practical significance of the competency-based approach and the existing challenges in its implementation are examined.

**Keywords:** Primary education, Mother tongue, Linguistic competence, Communicative competence, Competency-based approach, State Educational Standard, Curriculum, Methodology.

**Аннотация:** В данной статье анализируется вопрос формирования лингвистических компетенций в нормативных документах по предмету «Родной язык» в начальной школе. На основе Государственного образовательного стандарта и учебных программ освещаются современные подходы к развитию фонетической, лексической, грамматической и речевой компетенций учащихся. Также рассматриваются практическая значимость компетентного подхода и существующие проблемы его реализации.

**Ключевые слова:** Начальное образование, Родной язык, Лингвистическая компетенция, Речевая компетенция, Компетентный подход, Государственный образовательный стандарт, Учебная программа, Методика

## KIRISH

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir sohada ayniqsa ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur etish juda qiyin. Ayni paytda ta'lim tizimida elektron kitoblar, darsliklar, zamonaviy televizorlar, elektron doskalar, kompyuterlar, raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellektlar hayotimizga jadal kirib kelmoqda. Bundan tashqari bu jarayondan o'qituvchi unumli foydalangan holda o'z ustida yanda ko'proq ishlash hamda ta'lim retiningini jahon miqyosiga ko'tarishi talab va shart etib qo'yilgan. Shu bilan birga o'quvchi yoshlarga juda kata imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Shu imkoniyatdan unumli foydalangan holda yurtimiz yoshlari bir qancha tashabbuslar ko'rsatmoqda.

**Masalan:** Farg'onalik yana bir yurtdoshimiz Prizdent maktabi 11-sinf o'quvchisi Sobirova Dilafuz Sallohiddin qizi dunyodagi eng nufuzli Harvard universitetiga 100% lik grant bilan o'qishga qabul qilingani ham bejiz emas albatta. Hamyurtdoshimiz qabul jarayonida SAT dan 1540 hamda IELTS dan esa 8 natijani ko'rsatgan. Yana bir misol Muhammadov Mirjaxon Xalqaro Olimpiadada Kimyo fanidan 1-o'rinni egallab 1mlrd so'mdan ziyod pul mukofati bilan taqdirlandi. Bularning barchasini negizida muhtaram yurtboshimizning ta'limga berayotgan kuchli e'tiborida hamda o'quvchi yoshlar uchun ta'lim sohasiga ajratilyotgan investitsiyadir.

Shu kunlarda yurtimizda ta'lim sohasida tubdan o'zgarishlar bo'lmoqda. Muhtaram yurtboshimiz SH.M. Mirziyoyev ham takror va takror yoshlarga qarata shunday deydi: "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi" deya har bir nutqida bejizga aytmaganlar. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi shaxsning kompetensiyaviy rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir bo'lib, bu jarayonda til va muloqot madaniyati muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf ona tili fanida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish o'quvchining nafaqat nazariy bilimlarini, balki nutqiy va kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan ko'rinadiki O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida til siyosatini tubdan takomillashtirish, davlat tilining mavqeini yanada oshirish va ona tilida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqdi. Ushbu jarayonda Prezident farmon va qaror va farmoishlari ona tili fanining normativ asosini belgilash, lingvistik kompetensiyalarni tizimli ravishda shakllantirish imkonini yaratadi. Shu bois, mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili fanida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning hozirgi holati normativ-huquqiy, nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI VA TA'LIM: PREZIDENT FARMONLARI TAHLILI

2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli Prezident farmoni "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi mazkur farmoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrda imzolangan muhim strategik hujjatlaridan biridir. Ushbu farmonda quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

- davlat tilini rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilash;

- ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, jumladan, boshlang'ich ta'limda ona tili fanini sifat jihatdan takomillashtirish;
- davlat tilini o'rganish bo'yicha zamonaviy metodikalarni joriy etish.
- Davlat tilini jamiyatning barcha sohalarida amaliy qo'llash;
- Ta'lim tizimida ona tilini sifatli o'qitish va metodik resurslarni yaratish;
- O'qituvchilarni malaka oshirish orqali lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish

Ushbu farmon boshlang'ich sinf ona tili fanida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish uchun konseptual asos bo'lib xizmat qildi. Yurtimiz rahbari 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli farmonida "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ona tili yo'nalishida tub burilish yasadi. Bu farmon boshlang'ich sinf ona tili fani uchun me'yoriy-huquqiy bazasini mustahkamlashda muhim omil bo'ldi.

Mazkur farmon bilan:

- 2020–2030 yillarga mo'ljallangan O'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi;
- ta'lim tizimida o'zbek tilini o'qitish mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish vazifasi belgilandi;
- ona tili fanining amaliy yo'naltirilganligi kuchaytirildi.
- Ona tili fani dars soatlarini 1–4-sinfda oshirish;
- O'qituvchilar malakasini oshirish va metodik resurslar yaratish;
- Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan vazifalar belgilandi.

Farmonda bevosita ta'limga oid quyidagi vazifalar belgilangan:

- ona tili fanini o'qitishda lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash;
- boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning savodxonligi va nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni takomillashtirish;
- o'qituvchilarning til bo'yicha kasbiy kompetensiyasini oshirish.

Bu esa boshlang'ich sinf ona tili fanida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishni davlat miqyosidagi ustuvor vazifaga aylantirdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat ona tili fanini o'rganish jarayonida, balki ijtimoiy muloqot va boshqa fanlarni o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetensiyaviy yondashuv boshlang'ich ta'limda o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantiribgina qolmay til orqali muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida til siyosati va normativ-huquqiy bazasi O'zbekiston Respublikasida ona tili fanida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish Prezident farmonlari va qarorlari orqali normativ asosga ega bo'ldi. Ushbu hujjatlar ta'lim sohasida ona tili fanining mavqeini belgilash, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va o'quv jarayonini modernizatsiya qilishni nazarda tutadi. 2025-yil 1-fevraldagi Prezident qarori o'qituvchilarning malakasini oshirish va rag'batlantirishga qaratilgan:

- O'qituvchilarning tarif stavkalarini 50% miqdorida oshirish;
- Metodik laboratoriyalar tashkil etish va zamonaviy o'quv resurslarini joriy etish;
- Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdagi samaradorlikni oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan farmonlar til siyosatini takomillashtirish va rivojlantirish ona tilining jamiyatda o‘rni hamda uning o‘rganilish jarayonini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib. Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Boshlang‘ich ta‘limda ona tili fani davlat ta‘lim standartlari hamda umuman ta‘lim mazmuni va kompetensiyalar belgilanadigan o‘quv dasturi orqali tartibga solinadi. Bu hujjatlarda ona tili fanining maqsadi, vazifalari, nutqiy va lingvistik kompetensiyalar bilan bog‘liq malaka talablari aniq ko‘rsatib o‘tilgan — masalan:

- Fonetika va fonologiya elementlarini tushunish va qo‘llash;
- So‘z tuzilishi va yasallishini anglash;
- Gap tuzish qoidalarini amalda qo‘llash;
- Imlo va punktuatsiya normalariga rioya etish;
- Matnni tuzish va uning mazmunini tahlil qilish.

Shuningdek, davlat ta‘lim standarti kompetensiyalarni malaka talablari orqali belgilaydi. Misol uchun, ona tilida nutqiy kompetensiya A1 darajasidan boshlanadi va u o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik ko‘nikmalar darajasiga qarab bosqichma-bosqich oshiriladi. Kompetensiyaviy yondashuv Me‘yoriy hujjatlar ona tili fanida kompetensiyalarni shakllantirishni ta‘lim mazmuni asosida belgilaydi. Bu yondashuvda til bilimlari faqat “bilim” sifatida emas, balki real nutqiy vazifalarni bajarish uchun ham qo‘llanadigan ko‘nikmalar to‘plami sifatida tushuniladi. Lingvistik kompetensiya tushunchasi va pedagogik ahamiyati. Lingvistik kompetensiya — bu shaxsning til tizimini ichki anglash, uni amaliy qo‘llash va nutqiy vaziyatlarda mos ravishda foydalanish qobiliyatidir. Zamonaviy pedagogik talqinda lingvistik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarga ajratamiz:

- **Fonetik kompetensiya** — tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, intonatsiyani to‘g‘ri qo‘llash.
- **Leksik kompetensiya** — so‘z boyligi va ularni kontekstga mos qo‘llash.
- **Grammatik kompetensiya** — so‘z va gap tuzilishini tushunish va amaliy qo‘llash.
- **Sintaktik va matn kompetensiyasi** — matn tuzish, tahlil qilish va yaratish malakalari.
- **Imlo va punktuatsion kompetensiya** — yozma nutqda to‘g‘ri yozish qobiliyati.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat ona tili fanini o‘rganish jarayonida, balki ijtimoiy muloqot va boshqa fanlarni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy yondashuv boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish, til orqali muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida til siyosati va normativ-huquqiy bazasi O‘zbekiston Respublikasida ona tili fanida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish Prezident farmonlari va qarorlari orqali normativ asosga ega bo‘ldi. Ushbu hujjatlar ta‘lim tizimida ona tili fanining mavqei belgilash, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishni nazarda tutadi. Bugungi globallashtirish sharoitida ta‘lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifasi — shaxsni kompetensiyaviy yondashuv asosida

rivojlantirishdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga, ularning nutqiy tafakkuri, muloqot madaniyati va til orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ona tili fani boshlang'ich ta'lim tizimining tayanch fanlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, xususan, Prezident farmon farmoish va qarorlari ona tili ta'limini tubdan yangilash, davlat tilining nufuzini oshirish hamda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan aniq normativ asoslarni yaratdi. Ushbu maqola tahliliy ishda aynan shu hujjatlar asosida boshlang'ich sinf ona tili fanida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning hozirgi holati yoritiladi. Lingvistik kompetensiya tushunchasi dastlab N. Xomskiy tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u shaxsning til tizimini ichki anglash qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy pedagogik talqinda esa lingvistik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- fonetik kompetensiya (tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish);
- leksik kompetensiya (so'z boyligi va uni o'rinli qo'llash);
- grammatik kompetensiya (so'z va gap tuzilishini anglash);
- imlo va punktuatsion kompetensiya;
- matn yaratish va tahlil qilish kompetensiyasi.

Boshlang'ich ta'limda lingvistik kompetensiya o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda sodda, ammo tizimli tarzda shakllantiriladi. Bu jarayon nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishni, balki ularni nutqiy faoliyatda qo'llay olishni talab etadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi ta'lim tizimining eng muhim qismi bo'lib, u nafaqat bolalarning asosiy savodxonlik ko'nikmalarini shakllantiradi va undan tashqari ular fikrlash, anglash va muloqot qobiliyatlarini ham belgilaydi. Til — nafaqat muloqot vositasi bo'libgina qolmay balki tafakkur vositasi sifatida ham ta'lim jarayonining markazida turadi. Shu bois, ona tili fani boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'ziga xos o'rinni egallaydi va undan tashqari o'qitish jarayonida lingvistik kompetensiyalarni natijaviy shakllantirish va pedagogik hamda me'yoriy hujjatlarda asosiy ro'l sifatida xizmat qiladi. Maqolada lingvistik kompetensiyalar va ularning normativ-me'yoriy asoslari, Prezident farmonlari bilan bog'liq til siyosati doirasidagi hujjatlar tahlili hamda ular boshlang'ich sinflarda qanchalik muhim va asosiy etib belgilanganligini ko'rsatadi. Lingvistik kompetensiya — tilning strukturasi jihatdan (fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis) yo'nalishlarida o'rganish bilan birga nutqiy faoliyat orqali til bilimlarini qo'llay bilish qobiliyatidir. U nutqiy (og'zaki va yozma) ko'nikmalarni shakllantirish, til normalarini to'g'ri qo'llash, matnni anglash va yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bu ko'nikmalar o'quvchilarning nutq jarayonida faol ishlatish, fikrlarini aniq ifodalash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ona tili darslarining asosiy maqsadi — o'quvchilarda savodxonlik, nutqiy madaniyati va lingvistik bilimlarni shakllantirish va bunda grammatik bilimlar (fonetika, leksikologiya, imlo va boshqalar) bilan bir qatorda nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti to‘g‘risidagi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son 29.04.2019-yil “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-gacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni — xalq ta’limi tizimining strategik yo‘nalishlari belgilangan hujjat. Lex.uz
3. Boshlang‘ich ta’lim ona tili fani o‘quv dasturi. – Toshkent, Respublika ta’lim markazi.
4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
5. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Abdullayeva Q. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.  
Abdullayeva Q. «Ona tili o‘qitish metodikasi» — pedagogik yondashuvlar va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish metodlari. (Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020).
7. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. «Pedagogik texnologiya asoslari» — kompetensiyaviy ta’lim asoslari bo‘yicha ilmiy-metodik qo‘llanma. (O‘qituvchi, 2014).
8. Mahmudov N., Nurmonov A. «O‘zbek tilining nazariy grammatikasi» — til nazariyasi, til birliklarining didaktik tahlili uchun asosiy ilmiy manba. (Toshkent: Fan, 2010).